



## O'SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Almaxammatova Zarnigor Yunus qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'smirlik davrida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar, o'smirlar xulq-atvorida yuzaga keladigan o'ziga xosliklar, olimlar tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar, o'smirlarga berilgan ta'riflar va ular bilan ishlashda kerak bo'ladigan tavsiyalar keltirib o'tilgan*

**Kalit so'zlar:** *O'smir, o'smirlik davri, jinsiy balog'at, krizis, xislar, sezgilar, mayl.*

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan yosh avlodning kelajagi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar yangicha tizimdagi o'quv qo'llanmalar zamonaviy bilimlarni egallashda kerak bo'ladigan barcha metodlar XXI asr yoshlarining yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir davlatning bugungi va ertangi taraqqiyotini o'tkir zehnli, kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lgan o'g'il-qizlar belgilab beradi. Bugungi kunda, statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyo aholisining 30%dan oshiq qismini yoshlar tashkil etmoqda Ushbu ko'rsatkichning ancha ko'p qismini esa aynan o'smirlar tashkil qiladi.

**O'smirlik**-bolalikdan kattalikka o'tish davri ya'ni xalq tilida kichik bo'lib kichik bo'lmagan katta bo'lib katta bo'lmagan davr hisoblanadi. O'smirlik (5-9 sinflar oralig'i)10-11 yoshdan boshlab to 14-15 yoshgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi o'smir yoshidagi bolalar aqliy, jismoniy hamda siyosiy tomonlama bir muncha ustunliklarga ega. Chunki ulardagi psixik o'sish, ijtimoiylashish va balog'atga yetish jarayonlari ertaroq namoyon bo'lmoqda. Ko'p hollarda o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinflardan boshlanganligi tufayli, ushbu bosquichda bolalarda psixologik shu bilan bir qatorda fiziologik jihatdan ham bir qancha o'zgarishlar kuzatiladi. O'smirlarning ushbu davrda psixik va jismoniy taraqqiyoti tezlashadi, turli xil narsalarga bo'lgan qiziqishi, yangiliklarga intilishi jadallashadi. O'z shaxsini ya'ni "men"ini anglay boshlaydi, xarakteri shakllanadi va ma'naviy dunyosi kengayadi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi, oldin his qilmagan tuyg'ularining ,sezgilarining paydo bo'lishi, jinsiy hayotga taalluqli bir muncha qiyinroq masalalarning yuzaga kelishi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi.

Bu yoshda o'smirlarning tashqi ko'rinishida, jismoniy, fiziologik rivojlanishida o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Ayniqsa, o'g'il bolalar va qiz bolalardagi bo'ylarining o'sish jarayoni bir-biridan farq qiladi. Bolalarda 5-10 cm ga o'sish kuzatilsa, qizlarda 5-7 cm gacha o'sish kuzatiladi, Bundan tashqari, o'smirlarning og'iz bo'shlig'i va halqumidagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Yigitlarda ushbu hodisa qizlarga nisbatan ko'proq sodir bo'lgani uchun yaqqol ko'zga tashlandi hamda ularning ovozi yo'g'onlashadi, do'rillashni boshlaydi. Ushbu holatlar



o'smirning psixikasiga juda kata ta'sir ko'rsatganligi sababli, agar ularning ovozi muhokama, tanqid qilinaversa, uning ustidan kulinaversa, o'smir o'ta agressiv, urishqoq va tezda jaxli chiqadigan bo'lib qoladi. Bu kabi salbiy holatlarga tushmaslik uchun oiladagi kattalar, ota-onalar, o'qituvchi-murabbiylar bunday davrni boshdan kechirayotgan bolalar bilan qanday muomala va munozara qilish kerak ekanligini yaxshi bilishi talab etiladi. Chunki ayni shu bosqichda har bir o'smir o'z "**men**"ni shakllantiradi. O'zlarining imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ma'lum bir darajada do'stlariga va atrofidagi yaqin kishilariga ko'rsatishga harakat qiladi.

O'smirlarda bu davrda ko'pincha tajanglik, o'jarlik hamda maksimalizmlik holatlari kuzatilgani bois fanda ushbu davrni "**O'tish davri**", "**Krizis davr**", "**Qiyin davr**" degan nomlar bilan ham atashadi. Yuqorida keltirib o'tilgan o'zgarishlar bu davrdagi har ikki jinsdagi va istalgan turdagi temperament tipidagi o'smirlar uchun xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Yaxshi bilamizki, o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari va farqli tomonlari to'g'risida olimlarning turli nazariyalari va qarashlari mavjud. Shu jumladan, biologik yo'nalishning vakillari hisoblanmish **S.Xoll** hamda **Z.Freyd** o'tish davrining inqirozi biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblasalar, amerikalik antropolog olimlar **M. Mid** va **R.Benediktlar** o'smirlik inqirozi ijtimoiy munosabatlarning natijasidir deb isbotlaydilar. Mashhur psixolog **L. S. Vigotskiy** esa o'smir yoshi psixologiyasini "**Psixik rivojlanishdagi inqiroz**" deb nomlagan. U aynan 13 yoshni inqirozni sindiradigan nuqtasi deb atagan va hisoblagan. Negaki o'smirlarning ehtiyoj va imkoniyatlarining ortib borishi va ularning bir biriga o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan oila a'zolari, maktabdagi o'rtoqlari, do'stlari hamda ustozlari o'rtasida qarama-qarshi ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Yana bir taniqli olimimiz **M.G, Davletshin ham Vigotskiyning** izlanishlariga hamohang tarzda "**5-7 sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish**" mavzusida o'z tadqiqotlarini olib brogan hamda mehnat ta'limi va kasbga yo'llash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga alohida diqqat va e'tiborini qaratgan.

Bundan tashqari, o'smirlik davrining yana bir xarakterli xususiyatlaridan biri **o'smirlik avtonomiyasi** holati hisoblanadi. O'smirlik davri avtonomiyasi quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

1. **Huquqiy avtonomiya** - o'smirlik yoshiga yetgan bolaga huquqiy imtiyozlarning berilishi.
2. **Emotsional avtonomiya**-bolaga ota-onasi, yaqinlari tomonidan mehr-muhabbat ko'rsatilishi, hissiy qo'llab-quvvatlanishi.
3. **Makoni avtonomiya** – o'smirlarning iloji boricha odamlardan yiroqda bo'lishga harakat qilishi, ota-onasi nazaridan chetroqda bo'lishga urinishi va o'z hayollari bilan mashg'ul bo'lishi.

Xulosa o'rnida shu narsalarga alohida to'xtalib o'tish joizki, o'smirlik yosh davrlari ichida eng muhim va dolzarbligi bilan ajralib turadigan davr hisoblanadi. Ushbu davrda sodir bo'ladigan o'zgarishlar va o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda



ota-onalar, murabbiylar o'smirlar bilan ishlash davomida ehtiyotkor bo'lishlari lozim. Ular o'smirlar bilan ishlashda quyidagi maslahatlarga e'tibor berishsa foydadan xoli bo'lmaydi, albatta.

- Bolaga ko'proq vaqt ajratish.
- Bo'sh vaqtining to'g'ri taqsimlanganligiga etibor qilish.
- Darslaridagi faolligini kuzatib borish.
- O'smirning xohishini inobatga olib yoqtirgan qo'shimcha mashg'ulotlariga ruxsat berish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha tavsiyalar o'smirlar bilan murosa qilishda yordam beradi va qiyinchiliklarning oldini oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev.E."Umumiy psixologiya".-Toshkent.2010. 458-460-bet
2. Z.Nishanova ;D.Abdullayeva;G.Baykunosova;"O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi"-Toshkent.2015. 37-38-bet.
3. Nishanova.Z va boshqalar "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya".-Toshkent. 2018. 331-332-bet.
4. Davletshin.M.G. "Yosh va pedagogik psixologiya".-Toshkent. 2004.
5. "O'smirlik psixologiyasi". <https://arxiv.uz.2019>
6. "O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari" <https://cyberleninka.ru.2022>
7. "O'smir yoshlarda psixologik o'zgarishlar" <https://www.mpka.uz.2024>